

## BOLALARDA ODAMOVILIKNING SABABLARI, ASOSIY BELGILARI VA ULAR BILAN OLIB BORILADIGAN PSIXOKORREKSION ISHLAR.

AVEZOV OLMOS RAVSHANOVICH<sup>1</sup>

ISTAMOVA LAYLO RAJABOVNA<sup>2</sup>

<sup>1</sup>BuxDu psixologiya kafedrasi dotsenti

<sup>2</sup>Buxoro davlat universiteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7026939>

### ANNOTATSIYA

Shunday holatlar mavjudki, bunda bola atrofidagi olamni, uning shaxsiy ichki dunyosiga da'vo qiladigan insonlar yashaydigan noqulay, adovatli joy deb biladi. U o'zi bilan o'zi bo'lib qoladi va hech kim bilan, hatto tengdoshlari bilan muloqot qilishni istamaydi. Agar bola odamovi bo'lib o'ssa, ota-onas darhol, kechiktirmasdan harakatga tushishi kerak. Vaziyat nafaqat o'z-o'zidan o'zgarmaydi, balki, yoshi ulg'aygan sari faqat chuqurlashadi.

**Kalit so'zlar:** odamovilik, uyatchanglik, munosabat, holat, vaziyat, psixika, muhit, ota-onas, bola, psixokorreksiya, muloqot, adaptatsiya, munosabat.  
THE MAIN SYMPTOMS OF THE CAUSES OF DEPRAVITY IN CHILDREN AND THE PSYCHOCORRECTIVE WORK CARRIED OUT WITH THEM

### ABSTRACT

There are situations in which the child perceives the world around him as an uncomfortable, hostile place inhabited by people who claim his private inner world. He remains with himself and does not communicate with anyone, even with peers does not want to do. If a child grows up to be a maniac, parents should act immediately without delay. The condition not only does not change on its own, but only deepens with age.

**Key words:** humanity, childishness, attitude, state, situation, psyche, environment, parents, child, psychocorrection, communication, adaptation, attitude.

### KIRISH

**Odamovi bola - bu qanday bola?** Avvalo, odamovilik va uyatchanlik o'rtasidagi farqni anglab olish kerak. Va, albatta, bu farq mavjud. Uyatchan bola muloqot qilishni istaydi, lekin o'ziga ishonch bo'limganligi tufayli bu istagini hayotda amalga oshirish uchun jasorat topa olmaydi. Bola boshqalar bilan muloqot qilish vaqtida juda hayajonlanadi va tashvishlanadi, bu esa ko'pincha ijtimoiylashuviga, ya'ni jamiyatga moslashuviga qiyinchiliklarga olib keladi. Odamovi bolada uning atrofidagi kishilar bilan muloqot qilish uchun deyarli hech qanday intilish bo'lmaydi. U yakkalanib qoladi va muloqotga, ijtimoiy o'zaro

munosabatga muhtojlik sezmaydi. Agar uyatchan bolalarni boshqalar bilan to'g'ri muloqot qilishga, o'zlarini yengishga, muloqotdan qo'rmaslikka o'rgatish kerak bo'lsa, odamovi bolalarni esa o'zaro munosabatga kirishishga undash bilan, ularda muloqot qilish istagini uyg'otish kerak bo'ladi. Odatda, ota-onalar farzandlarida sharoitga moslasha olmaslik xususiyati mavjudligidan xavotirga tushadilar. Bolakay haqiqatdan ham odamovi bo'lib o'sayaptimi yoki yo'qligini aniq bilish uchun bu holatning namoyon bo'lish belgilari bilan tanishib chiqish kerak.

**Bolalardagi odamovilikning namoyon bo'lishining asosiy belgilarini ko'rib chiqamiz: Indamaslik.** Odamovi bola o'z ta'assurotlari va fikrlari bilan o'rtoqlashmasdan, juda oz, va faqatgina mohiyati bo'yicha gapiradi. Har bir hakatlarini o'ylab qiladi. Agar bolani kuzatsangiz, u har qanday ishni oldindan rejalashtirgandek tuyulishi mumkin (va bu haqiqatan ham shunday), uning harakatlarida spontanlik (tasodifan bajaradigan ishlar) yo'q.

**Ehtiyyotkorlik.** Bola o'ziga ishonmaydi, yangi narsalardan qo'rqadi. Kompaniyalarda ko'pgina begona kishilarning bo'lishi uni ruhiy noqulaylikka olib keladi.

**Boshqalardan chetlashganlik.** Bolalar bog'chasida, mакtabda yoki o'yin maydonida tengdoshlar bilan muloqot jimgina kuzatish yoki boshqalarga nisbatan butunlay e'tiborsiz bo'lish bilan tugaydi.

Bolaning do'stlar doirasi juda tor va ko'pincha hattoki yaqin do'stini hamko'rishishni xohlamaydi. O'z fikrlarini jamoatchilik oldida ifodalashga qodir emas. Bola har qanday og'zaki chiqishlarga qiyinchilik bilan erishadi, og'ir stress holatini his qiladi. Bunday holda bolada yozma nutqi yaxshi rivojlangan bo'lishi mumkin.

### **Ichidagini hech kim bilan bo'lishmaslik.**

Bolaga qaraganingizda uning ichida his-tuyg'u va fikrlar jo'shqin urayotganini sezish mumkin, lekin u hatto onasi bilan ham bo'lishishga shoshilmaydi. Ko'pincha odamovi bolalar to'g'ridan-to'g'ri ko'z bilan aloqa qilishdan qochadilar va shuning uchun suhbatdoshning ko'ziga deyarli hech qachon tik qaramaydilar. Ushbu bolakaylarning aksariyati jonli tarzda imoshoralar qilmaydilar; ko'pincha ularning tana harakatlari erkin emas, qo'llari esa doimo tana bo'ylab pastga tushib ketadi yoki qovushtirilgan holda bo'ladi.

### **ASOSIY QISM**

### **Bolalardagi odamovilikning mumkin bo'lgan sabablari**

Ehtimol, bola nozik ruhiy tuzilmaga ega bo'lishi mumkin. Uning ko'ngli nozik bo'lib, shaxsiy dunyosining chegaralarini belgilashga harakat qiladi. Buning ajablanarli joyi yo'q, ayniqsa, uning ota-onasi ham xuddi shu tarzda o'zlarini

tutsalar (masalan, uyga kelganlarida oilaviy muloqot o'rniga, ular gadjetlarga sho'ng'ib ketadilar, shunday tarzda qiyin o'tgan kundan keyin dam olishadi). Bolalar tashqi olam bilan taqlid orqali muloqot qilishni o'rganadilar; ular ko'pincha ota-onalarining odatlarini o'zlarida mujassamlab, ularning xulq-atvorini qaytaradilar. Odamovilikning boshqa keng tarqalgan sabablariga quyidagilarni kiritish mumkin: o'ziga ishonmaslik; noto'g'ri tushunishlaridan va mojaroli vaziyatga to'qnashishdan qo'rqish; erta bolalik davrida shakllangan tor muloqot doirasi; uzoq muddatli kasallik, u bu vaqt davomida do'stona munosabatlarni esidan chiqarib yuborgan bo'lishi mumkin; bolani doimiy nazorat qilish, uning shaxsiy chegaralarini buzish; ruhiy jarohatlanish (yaqinlarining kasalligi yoki o'limi, ota-onasining ajralishi).

Odamovilikning sababi o'tmishda sodir bo'lган noxush holat ham bo'lishi mumkin. Misol uchun, bola chin dildan o'z his-tuyg'ularini ifodalaganda uning ustidan kulgan bo'lishlari mumkin. Yaqinlari tomondan sovuq munosabat va haddan ziyod qattiq tarbiya qilish ham odamovilikka sabab bo'lishi mumkin.

### **Bolalardagi odamovilik qanday oqibatlarga olib kelishi mumkin?**

Bolalik yillari hayajon va kechinmalarga to'la. Bu shaxsiy shakllanish davri, tengdoshlar bilan aloqa o'rnatish va jamoada o'z o'rnini topish. Odamovilik to'la qonli aloqalarni yo'lga qo'yishda jiddiy to'siq bo'lishi mumkin va ijtimoiy chetlanishlarga olib kelishi mumkin.

Odamovi bola voyaga yetgan davrida odamlar bilan mustahkam ishonch munosabatlarini o'rnatishi, shaxsiy hayotini yo'lga qo'yishi, martaba zinapoyasidan ko'tarilishi qiyin bo'ladi. Ortib borayotan o'ziga ishonchsizlik, qoqilishdan qo'rqish, o'z-o'zini ifodalashning imkoni yo'qligi tushkunlikka tushish va boshqa halokatli holatlarning sababchisi bo'lishi mumkin.

Odamovi bolani qanday tarbiyalash kerak?

Ba'zi bolalar juda imillagan, odamovi va og'ir-bosiq bo'ladi. Ular juda kichkinaligidanoq bolalarni uzoqdan kuzatishni yaxshi ko'radi. Bolalar bilan birga o'ynamaydi, to'rt yoshga to'lganda zo'rg'a gapirishni boshlaydi. Bunday tabiatli bolalarni ruhshunoslar flegmatiklar deb ataydi.

Flegmatik bolaning tabiatini qanday qilib to'g'rilash mumkin?

Odamoviligidan boshlaymiz

Bola yolg'izlikni yaxshi ko'radi, tengdoshlari bilan kam o'ynaydi. Kech gapirish, atrofdagi muhit to'g'risidagi tasavvurning kamligi va haddan tashqari tortinchoqlik shu tufayli paydo bo'ladi.

Iloji boricha bola bilan ko'proq muloqotda bo'lish, birga qo'shilib o'ynashga harakat qilish, mehmonga, do'konlarga, jamoat joylariga birga olib yurish kerak. Bolalar bog'chasi alohida band bo'lib hisoblanadi

Bir tomondan, erkin bo'lib o'sishi uchun bolaga kollektiv kerak. Ikkinchisi tomondan – agar hali erta bo'lsa, u yanada battarroq o'z-o'zi bilan bo'lib qolishi mumkin. Bolalar bog'chasi uchun eng muvofiq yosh – 3 yosh hisoblanadi. Agar u bog'chada ovqat yemasa, tarbiyachi va bolalarga e'tiborsiz bo'lsa – uni vaqtincha u yerdan olishni o'ylab ko'ring.

#### Sustkashlik

Bolani jalg qilish kerak. Buning uchun qum soatlar juda yaxshi. 20 daqiqalik qum soat sotib oling, uni teskari qilib qo'ying va qumlar to'kilib bo'lguncha bajarish kerak bo'lgan topshiriq bering.

#### Erinchoqlik

Bu yerda ham jalg qilish juda muhim. Topshiriq bering, u endi katta bo'lganini va siz unga ishonishingizni ayting. Va albatta rag'batlantiring. Baqirish bilan hech narsaga erisha olmaysiz – flegmatiklar o'zi bilan o'zi bo'lib qoladi va sizni eshitmaydi.

#### O'sishning kechikishi

Toqatlilik talab qilinadigan rivojlantiruvchi o'yinlar bilan shug'ullanish kerak, chunki flegmatiklar juda sabrli bo'ladi. Buning uchun uyda har kuni 15-30 daqiqa shug'ullanish yetarli bo'ladi.

#### Odamovilik

O'z hissiyotlarini ifodalash juda muhim. Buning uchun timsoh tipidagi o'yinlar mos keladi: qayerda qiliq qilish, qayerda mimika bilan ishlab o'z ichki dunyosini tushuntirish. O'z hissiyotlaringizni ko'rsatishdan tortinmang.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, shunday holatlar mavjudki, bunda bola atrofidagi olamni, uning shaxsiy ichki dunyosiga da'vo qiladigan insonlar yashaydigan noqulay, adovatli joy deb biladi. U o'zi bilan o'zi bo'lib qoladi va hech kim bilan, hatto tengdoshlari bilan muloqot qilishni istamaydi. Agar bola odamovi bo'lib o'ssa, ota-onalar darhol, kechiktirmasdan harakatga tushishi kerak. Vaziyat nafaqat o'z-o'zidan o'zgarmaydi, balki, yoshi ulg'aygan sari faqat chuqurlashadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.E.G'oziyev "Yosh davrlari psixologiyasi"- Toshkent
- 2.E.G'oziyev "Ontogenetika" - Toshkent 2010.
- 3.Z.Nishanova , D.U.Abdullayeva, M.X.Xolnazarov "Rivojlanish psixologiyasi". "Pedagogik psixologiya " Toshkent 2017
- 4.F.I.Xaydarov , N.I.Xalilova "Umumiy psixologiya" Toshkent 2010
- 5.Z.T.Nishanova, D.Qarshiyeva, N.Ataboyeva, Z.Qurbanova "Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya " Toshkent 2014
- 6.Z.T.Nishanova, "Bolalar psixologiyasi va uni o qitish metodikasi "

«Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya»  
nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya

7.SH.A.Dostmurodova, Z.T.Nishonova, S.N.Jalilova "Yosh davrlari va pedagogic  
psixologiya" Toshkent 2013